

**ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR HAMDA  
MUAMMOLI VAZIYATLARGA YECHIM TOPISH**

**Muazzam Beshimova Bahodirovna**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-kurs talabasi*

**Nigina O‘roqova Botirjon qizi**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-kurs talabasi*

**Farangis To‘lanboyeva Ibrohimjon qizi**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta’lim-tarbiyada o‘quvchi yoshlarni kelajak poydevorini mustahkam qilib qurish ularni innovatsiyon texnologiyalardan foydalananib darslarni samarali o‘tish nafaqat o‘qitib balki o‘qigan har bitta jumlalarini anglab uni qanday ma’no mazmunga ega ekanligini tushunib yetishlariga yo‘l ko‘rsatish haqida yozilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, zamonaviy ta’lim, innovatsiya, axborot texnologiyalari, amaliyot, o‘quv qo‘llamalar, malaka, dasturlar.

**Abstract:** *In this article, in the education and training of young people, the way to build a solid future for them is to use innovative technologies to pass lessons effectively, not only by teaching, but also by understanding the meaning of each sentence they read. written about show.*

**Keywords:** Education, modern education, innovation, information technologies. practice, training manuals, qualifications, programs.

**Абстрактный:** В этой статье в образовании и обучении молодых людей путь к построению прочной стены будущего заключается в использовании инновационных технологий для эффективного прохождения уроков не только путем обучения, но и путем понимания смысла каждого прочитанного предложения. написано о выставке.

**Ключевые слова.** Образование, современное образование, инновации, информационные технологии. практика, учебные материалы, квалификации, программы.

Fan bilan texnikaning o‘zaro bog`liqligi bu yagona, yanada tezlashib boruvchi taraqqiyot, ilm-fan hamda ijtimoyi taraqqiyot asosi demakdir. Biz hozirgi kunda texnikalar rivojlangan davrda yashar ekanmiz barcha qurilmalar texnika ya’ni masofadan to‘xtab bajarish imkoniyati bo‘lgan qurilmalar hattoki maktablarda ham zamonaviy ta’limdan foydalangan holda darslarni o‘tilishi avvalgidek o‘qituvchilarining asosiy quroli doska va

bo‘rdan cheklanib qolmagan holda elektron doskalar, televizorlar, ba’zi joylarda har bitta o‘quvchida dars uchun planned va bir qancha innovatsiyon texnologiyadan foydalangan holdagi o‘quv qurollari mavjud. Aynidamda ulg`ayib borayotgan yoshlari ham zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda ulg`aymoqdalar ularni endiki kunda oddiy ma’ruzlar bilan darsga jalb qilib bo‘lmaydi sababishuki bolaning diqqatini 7 minut darsga qarata olamiz qolgan vaqtida esa darsdan chalg`igan holda darsga be e’tibor bo‘lib o‘tirishadi. Shuning uchun turli harakatli mashqlar darsning o‘rtasida mavzudan chetlashmagan holda metodlar qo‘llab yana darsga olib kira bilishimiz kerak.

Zamonaviy<sup>37</sup> yondashuv bu muammolarni hal qilishda yangi va innovatsion usullarni qo‘llash dars samaradorligini yanada yaxshilashni anglatadi. Bu yondashuvlar orqali baholash tizmidan ham foydalanilmoqda. Ta’lim oluvchilarining faol fikr yuritishi o‘qitilishining asosiy maqsadi, ularni dastlabki tahsil vaqtidan ilmiy izlanish tadqiqot ishlariiga jalb etish, uning natijalarini amaliyatga tadbiq etish va shu bilan birga mustaqil mutaxassislarni tarbiyalashdir.

XXI asrning so‘nggi yilligida ta’limi tarixida, bolalarning o‘quv va kognitiv materiallarni o‘zlashtirish potentsial darajasi bilan maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar o‘rtasidagi farq doimiy ravishda o’sib bormoqda. Bolalar ma`lum axloqiy toifalarini kam farqlaydilar. Maktabgacha yoshdagি bolalar o‘z xatti -harakatlarini tartibga solish qobiliyatiga ega emaslar, bolalar kattalar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lmaydilar, munosabatlar o‘rnatishda faollik va muloqot tashabbuskorligini ko‘rsatmaydilar.

Shu sababli, muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasida bolaga har xil turdagи bolalar faoliyatining mazmunli qadriyatlarini aniqlashga imkon beradigan yo‘l ko‘rsatish lozim.

Bizning tadqiqtimizda bolalarni ijodiy fikrlashga, muammoni ko‘rishga, bu muammoni hal qilish uchun farazlar qo‘yishga, mustaqil yechimlarni topishga, xulosalar chiqarishga o‘rgatadigan muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta’limning asosiy tarkibiy qismlaridan biri muammoli vaziyatdir. Muammoli vaziyat deganda muammoning markaziy bo‘g‘ini tushuniladi, uning yordamida fikr, kognitiv ehtiyoj uyg‘onadi, tafakkur faollashadi va to‘g‘ri umumlashmalarning shakllanishi uchun sharoit yaratiladi. Bugungi kunda yosh avlodga to‘g‘ri ta’lim tarbiya bergen holda ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash va darslarni samarali tarzda o‘tishdir. Mazkur maqolaga oid metod ishlab chiqdik bu metodimiz boshlang`ish ta’limda albatta qo‘l keladi. Sababi bu metodda o‘quvchilar faqatgina aqiliy emas balki jismoniy harakat ham qilishadi.

<sup>37</sup> Gimush R.I.Innovatsion menejment.- T. o‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti, 2008-10b.

Metodimizning nomi “Lepar” deya nomlaganmiz bu o‘yin albatta barchamizga tanish xuddi shu o‘yinni biz endilikda darsda qo‘llasak qanday bo‘ladi?

Bu metodni barcha fanlarda qo‘llasak bo‘ladi, biz ona tili darsi misolida oladigan bo‘lsak. Metodni shartlari shundan iboratki 8ta oq qog‘ozga raqamlar bilan belgibab olamiz va yerga ularni joylashtirib chiqamiz so‘ngra o‘sha qog‘ozga tosh tashlab tushgan raqamning ustiga borishadi va savol bo‘lsa savolga javob berishda yoki shart tushgan bo‘lsa shartni bajarisha agarda u ham bo‘lmasa sovg‘a bo‘lsa sovg‘ani olib orqaga qaytishadi. Bu metodni qanday darslarda foydali tomoni bor deb qaraydigan bo‘lsak bunda o‘quvchilar harakatlar orqali eslarida ko‘proq qaladi hamda zamonaviy ta‘limga mos, jismoniy harakatlar orqali darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. To‘xliev N. Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotlarning innovatsion rivojlanishi muammolari. Ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyot: global, mintaqaviy va milliy iqtisodiy tendensiyalar. T.: 2015, 26-bet
2. Qudratov, T. B. (2021). Ta’limda xalqaro tajribalar. Вестник магистратуры, (1-3 (112)), 66-67.
3. Qizi, S. Q. B., & Akramjanovich, K. A. (2024). STEAM TEXNOLOGIYALARI. Eurasian Journal of Academic Research, 4(7S), 494-497.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4-jild- T. “o‘ZME” Davlat ilmiy nashiryoti, 2002 y. 169-bet.
5. Abdullayevna, N. Y., & Qizi, S. Q. B. (2024). CREATIVE KOMPETENTSIYALARINI THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FORMATION OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Eurasian Journal of Academic Research, 4(7S), 706-709.
6. Qudratova, S. (2024). Problematic education, which is one of the foundations of the STEAM approach in education. Modern Science and Research, 3(1), 1-6.
7. Qudratova, S., & To‘rabekova, D. (2023). THE ROLE OF STEAM EDUCATION IN THE FORMATION OF THE FUTURE TEACHER’S PERSONALITY. Modern Science and Research, 2(9), 40-44.
8. Qudratova, S. (2023). SYSTEM OF USING INTERNATIONAL EXPERIENCES IN ORGANIZING LESSONS FOR STUDENTS OF PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 2(6), 706-710.